

Uzbekistan Airways “SITF-2023” ko’rgazmasida ishtirok etdi



Seoul International Travel Fair unda ishtirok etayotgan har bir davlatning turizmi va madaniyatini targ’ib qilish uchun eng yirik keng qamrovli sayohat yarmarkasi hisoblanadi. SITF Koreyadagi yagona xalqaro ko’rgazma bo’lib, unda mahalliy va xorijiy nufuzli sayyoqlik tashkilotlari qatnashadi hamda homiylik qiladi, qolaversa, o’zaro

tajriba almashish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish uchun zamin yaratadi.

Yarmarka davomida aviakompaniya vakillari Koreyaning Jeju Air aviatashuvchisi bilan muhim boʻlgan tijoriy hamkorliklar boʻyicha muzokaralar olib bordi, Janubiy Koreya bozorida Uzbekistan Airways brendini mustahkamlash boʻyicha mahalliy ommaviy axborot vositalariga bir nechta intervyular berdi. Tashrif buyuruvchilar oʼrtasida mahalliy savdo agentlari tomonidan turli tanlovlardan tashkil etilib unda Uzbekistan Airways’ning korporativ sovgʼalari oʼynaldi.

